

**BANK TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH
SAMARADORLIGI****Qosimjonova Surayyo Qosimjon qizi****Navoiy Innovatsiyalar universiteti,****Iqtisodiyot yo'nalishi, 1- bosqich magistri****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17801674>**

Kirish. Mamlakat moliya tizimini rivojlantirishda bank xizmatlarini zamonaviylashtirish va ularni soddalashtirishning roli katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda axborot texnologiyalari, barcha sohalarida bo'lgani kabi, bank tizimiga ham keng joriy etilmoqda. Bugungi kunda bank tizimining raqamlashtirilishi moliyaviy xizmatlarning tez, qulay va xavfsiz bo'lishini ta'minlamoqda. Raqamli texnologiyalar bank faoliyatining deyarli barcha sohalariga — hisob-kitoblar, kreditlash, to'lov tizimlari, mijozlar bilan ishlash va xavfsizlik tizimlariga chuqur kirib bormoqda. Bank tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash bugungi kunda bank instituti moliya oqimlarini boshqarish, naqd pulsiz to'lovlarni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy o'rin tutadi.

O'zbekiston iqtisodiyotida bank tizimi davlat dasturlarining moliyalashtirilishi, infratuzilma loyihalarini qo'llab-quvvatlash va tashqi investitsiyalarni jalb qilish jarayonida katta ahamiyatga ega. Aholining to'lov odatlari naqd puldan elektron to'lovlarga o'tishi esa bank tizimining rolini yanada oshirmoqda.

Raqamli texnologiyalar - axborot va ma'lumotlarni elektron shaklda yaratish, saqlash, uzatish va qayta ishlash imkonini beradigan ilg'or IT vositalaridir. Ular internet, mobil dasturlar, sun'iy intellekt, bulut texnologiyalari, blokcheyn, biometrik identifikatsiya kabi innovatsiyalarni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, raqamli transformatsiya banklarga mijozlarning katta hajmdagi ma'lumotlarini to'plash, tahlil qilish va ulardan foydalangan holda ilg'or tahliliy innovatsion mashinalarni o'rganish algoritmlari hamda tijorat banklarga mijozlar xatti-harakati, imtiyozlari va risklari haqida tushunchaga ega bo'lishga xizmat qiladi.

1-jadval

Raqamli texnologiyalarning asosiy turlari va ularning bankdagi funksiyalari

1. Mobil banking

Mobil banking mobil ilovalar orqali bank xizmatlarining aksariyatini masofadan turib amalga oshirish imkonini beradi. Masalan: hisob raqamlaridagi mablag'larni boshqarish, to'lov va pul o'tkazmalarini amalga oshirish, onlayn omonat ochish yoki yopish, kredit olish va kredit tarixini ko'rish.

Mobil banking bugungi kunda bank xizmatlarining eng ommabop ko'rinishiga aylangan.

2. Internet banking

Internet banking orqali mijozlar istalgan qurilma yordamida o'z hisoblarini boshqarishlari mumkin. Bu xizmat yuridik shaxslar uchun ayniqsa muhim bo'lib, buxgalteriya va to'lovlar bo'yicha jarayonlarni sezilarli darajada vengillashtiradi.

3. QR-to'lovlar va kontaktless texnologiyalar

QR-kod orqali to'lov tizimlari O'zbekistonda keng ommalashdi. Bu texnologiya tranzaksiyalarni: tezkor, arzon, to'g'ridan-to'g'ri, xavfsiz qilishga xizmat qiladi.

4. Blokcheyn texnologiyasi

Blokcheyn tranzaksiyalarni shaffof, kuzatiladigan va himoyalangan shaklda yuritish imkonini beradi. Bank tizimida u quyidagi yo'nalishlarda qo'llanmoqda:

- xalqaro pul o'tkazmalari,
- smart-kontraktlar asosida kreditlash,
- raqamli aktivlar va tokenlar bilan ishlash,
- kiberxavfsizlikni kuchaytirish.

5. Sun'iy intellekt (AI) va Machine Learning

Sun'iy intellekt banklarda quyidagi funksiyalarni bajaradi: mijozlarni segmentlash va ularga mos xizmatlar taklif etish,

- firibgarlik holatlarini aniqlash,
- kredit reytingini hisoblash (score modeling),
- mijozlarga avtomatlashtirilgan maslahat


6. Bulutli texnologiyalar

Bulut texnologiyalari server xarajatlarini kamaytiradi, ma'lumotlarni tezkor qayta ishlashni ta'minlaydi va bank xizmatlarining uzluksiz ishlashiga yordam beradi.

Ma'lumotlar tahlilidan foydalangan holda, banklar yangi daromad imkoniyatlarini aniqlashi, mahsulot takliflarini optimallashtirishi va moliyaviy risklarni yanada samaradorligini oshirish, bu esa umumiy moliyaviy ko'rsatkichlarning o'sishiga olib keladi.

Banklar raqamli vositalardan foydalangan holda moliyaviy operatsiyalarni real vaqtda kuzatishi va tahlil qilishi mumkin, bu esa potentsial xavf va muammolarni tez aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, moliyaviy risklarni boshqarishning kengaytirilgan imkoniyatlari tijorat banklariga yo'qotishlarni minimallashtirishda, me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilishda va moliyaviy aktivlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval



Raqamli transformatsiya tijorat banklariga mijozlarning o'zgaruvchan ehtiyojlari va afzalliklariga moslashtirilgan innovatsion mahsulot va xizmatlarni taklif qilish imkonini berib yangi daromad manbalarini oshiradi. Raqamli tranzaksiyalarning bank faoliyatiga ta'siri sezilarli darajada ekanligi isbotlangan, bu esa moslashuvchan raqamli mahsulotlar va xizmatlar orqali daromadning oshishiga olib keladi

Xulosa. Raqamli texnologiyalarni joriy etish bank xizmatlarining tezligi, ishonchliligi va sifatini yaxshilaydi, shu bilan birga moliyaviy inklyuziya va raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

Raqamli kanallar va texnologiyalarni qo'llash orqali banklar o'zlarining bozor imkoniyatlarini kengaytirishi, yangi mijozlarni jalb qilishi va raqamli iqtisodiyotda paydo bo'layotgan imkoniyatlardan foydalanishi natijasida daromadlar o'sishi va rentabellikni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida, raqamli transformatsiya tijorat banklari uchun xarajatlarni kamaytirish, operatsion jarayonlarni takomillashtirish, mijozlar tajribasini oshirish, ma'lumotlarga asoslangan tushunchalardan foydalanish, moliyaviy risklarni boshqarish imkoniyatlarini kuchaytirish, daromadlar o'sishini rag'batlantirish va tez rivojlanayotgan sharoitlarda moslashuvchanlikni takomillashtirish orqali moliyaviy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mamadiyarov, Z. (2022). Raqamli transformatsiya jarayonida bank xizmatlarini masofadan ko'rsatishni innovatsion rivojlantirish Зокир Мамадияров. Scientific Journal of "International Finance & Accounting.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2022). *Bank tizimida raqamli transformatsiya: istiqbollar va muammolar*. Toshkent
3. Karimov, A., & Xudoyqulov, S. (2021). Raqamli bank xizmatlari va moliyaviy inklyuziya: O'zbekiston tajribasi. *Iqtisodiyot va ta'lim jurnali*, 3(2), 45–52.
4. <https://www.trend.az/casia/uzbekistan/3719266.html>
5. <https://bank.uz/>